

Date: 9th December-2024

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA MEXANIK XOTIRANING AHAMIYATI

Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li

International school of finance technology and science instituti Psixologiya va pedagogika kafedrası mudiri, Psixologiya fanlari doktori, (DSc)

Boltaboyev Hosilbek Solibobo o'g'li

International school of finance and technology science instituti Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi, 1-bosqich, 24-XTA-01 guruhi talabasi,

hosilbekboltaboyev42@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishda mexanik xotiraning qanday ahamiyatga egaligi, tillarni va so'zlarni eslab qolishda qanday muhim ahamiyat aks etishi, murakkab va eng kerakli so'zlarni tez va oson eslab qolish uchun qanday psixologik usullardan foydalanish mumkinligi haqida bahs boradi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, xotira, mexanik xotira, esda saqlay olmaslik, murakkab so'zlar, mukammal eslab qolish.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение механической памяти при изучении иностранных языков, насколько она важна при запоминании языков и слов и какие психологические методы можно использовать, чтобы быстро и легко запомнить сложные и самые нужные слова.

Ключевые слова: иностранный язык, память, механическая память, неспособность запомнить, сложные слова, идеальное припоминание.

Abstract. This article discusses the importance of mechanical memory in learning foreign languages, how important it is in memorizing languages and words, and what psychological methods can be used to quickly and easily memorize complex and most necessary words.

Key words: foreign language, memory, mechanical memory, inability to remember, complex words, perfect recall.

Kirish. Til o'rganish har bir davrning dolzarb masalasi sanalgan. Ayniqsa, bugungi kunda tillarni o'rganishga e'tibor yanada ortib bormoqda. Hozirda eng ko'p o'rganilayotga, shuningdek, o'rganishga talab yuqori va keng tarqalgan tillardan biri; xitoy tili, ingliz tili, arab tili, rus tili, nemis tili, fransuz tili va yapon tillaridan iborat. Biroq, ayrim insonlar tilni o'rganish va so'zlarni mukammal eslab qolish qiyin deb o'ylaydi. Ushbu ustanovkalar esa til o'rganishda yanada qiyinchilik paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Qiyin deb o'ylashning sababi esa oddiy, chunki ayrim insonlar erinchoqlik qilishadi, aytilgan topshiriqni vaqtida bajarishmaydi, o'z ustilarda shug'ullanmaydi. Eng keng tarqalgan assotsatsiyalar esa aybni til o'rgatuvchi o'qituvchiga qo'yish yoki til o'rganish men uchun emas ekan deb, taslim bo'lishdir. Shu o'rinda e'tiborga olish lozim-ki, "Aybni kimdirga yoki nimagadir qo'yishdan oldin, xatoni va kamchilikni o'zidan qidirgan ma'qul".



Date: 9th December-2024



Asosiy qism. Agar inson chin dildan nimagadir qasd qilsa, astoydil harakat qilsa albatta maqsadlariga erishadi. Tillarni oʻrganish aslida biz oʻylaganidek qiyin emas. Oʻrganish va eslab qolish uchun oʻz ustida koʻproq ishlash va har bir inson oʻzining eng qulay oʻrganish uslubini anglab yetmogʻi darkor. Bunda esa mexanik xotiraning ahamiyatini anglab yetish muhim. Xorijiy tillarni oʻrganish va oʻzlashtirish jarayonlari inson aqli, eslab qolish xotirasi va oʻrganish usullariga tubdan bogʻliq boʻlib, bunda mexanik xotira muhim oʻrin tutadi. Mexanik xotira oʻzi nima?

Mexanik xotira – bu, xotiraning bir qismi boʻlib, insonlar oldin bilmagan va tushunmagan maʼlumotlarini koʻrish va eshitish orqali yaxshilab oʻzlashtirish va qayta-qayta takrorlash qobiliyati. Mexanik xotira xorijiy tillarning asosiy va zarur elementlarini oʻzlashtirishda, xususan soʻz boyligini koʻpaytirish va kengaytirishda, grammatik qoidalarni mukammal oʻzlashtirib olishda va ularni qoʻllashda muhim ahamiyatga ega. Nafaqat xorijiy tillarni oʻrganish va oʻzlashtirishda, boshqa bir harakat yoki holatni eslab qolishda mexanik xotira muhim ahamiyat aks ettiradi. 2 yoshdan 5 yoshgacha boʻlgan bolalarda mexanik xotira yaxshi rivojlangan boʻladi, chunki ular koʻrgan va eshitgan soʻzlarini, gaplarini, koʻrib oʻrgangan biror bir harakatni doim takrorlab aytib, bajarib yurishadi. Shu sabab 2 – 5 yosh orasidagi bolalar bilan koʻproq turli xil kitoblar oʻqish, koʻproq boshqa tillar boʻyicha lugʻatlar yod oldirish, ularni oldida koʻproq boshqa tillarda gapirish va qiziqarli mashgʻulotlar bajarish, ularga kelajakda shu narsalarni oʻrganishda va bajarishda oson boʻladi.

Xorijiy tillarni oʻrganishda mexanik xotiraning afzalliklaridan biri bu, soʻz boyligini oshirishdir. Yangi soʻzlarni oʻrganish va mukammal eslab qolishda mexanik xotira asosan qayta-qayta takrorlash orqali ishlaydi. Yangi soʻzlarni qayta-qayta takrorlab yodlash orqali soʻzlarning talaffuzi va maʼnosi miyada mustahkamlanadi.

Ikkinchi afzalligi esa talaffuzni oʻrganish. Tillarni oʻrganishda soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila bilish juda zarur. Bu jarayonda soʻzlarni tez-tez va qayta-qayta talaffuz qilish mexanik xotirani faollashtirib, talaffuzni mukammal qiladi.

Uchinchi afzalligi bu matnlar bilan ishlash va ularni yod olish, audio va video materiallardan foydalanish. Chet tilidagi sheʼrlarni, dialoglarni yoki kichik qiziqarli matnlarni yod olish, turli xil musiqa va audiolarni eshitib yod olish, inson oʻzi yoqtirgan film yoki tillarni oʻrgatish haqidagi videolarni koʻrish mexanik xotirani rivojlantiribgina qolmay, Til tuzilmalarini mukammal oʻzlashtirib, eslab qolishda yaxshigina yordam beradi.

Toʻrtinchisi, xorijiy tillarni oʻrganishda eng muhimi bu grammatika va qoidalarni mukammal oʻzlashtirishdir. Har bir tilning oʻziga xos grammatik qoidalari mavjud. Agar grammatika yaxshi oʻzlashtirilmasa gap tuzib gapirishda, turli xil grammatik mashqlarni bajarishda yaxshigina qiyinchilik tugʻdiradi. Shuning uchun grammatikani mukammal oʻzlashtirish juda zarur. Ularni oʻrganishda ham mexanik xotira katta ahamiyatga ega.

Mexanik xotirani yaxshilash va undan unumli foydalanish uchun yangi maʼlumotlarni oʻrganish va ularni qayta-qayta takrorlash zarur. Har kuni belgilangan vaqtda til materiallarini oʻrganib ularni muntazam qayta oʻqib yod olib chiqish mexanik xotirani yaxshigina kuchaytiradi.

Date: 9th December-2024

Xulosa. Xorijiy tillarni o‘rganishda mexanik xotiraning ahamiyati juda katta. Lekin ushbu jarayonda faqatgina mexanik xotira bilan cheklanish emas, balki boshqa usullarni ham qo‘llash lozim. Chunki mexanik xotira tillarni o‘rganishda faqatgina bitta vosita xolos. Uni mantiqiy chuqur fikrlash va tillarni amalda qo‘llash bilan birgalikda olib borish kerak. Faqat mexanik yodlash bilan cheklanib qolish kerak emas. O‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni hayotda qo‘llash kerak, aks holda turli xil qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun ham tillarni o‘rganishda mexanik xotirani mantiqiy fikrlar bilan yondashuv, nutqiy amaliyot va aqliy, ijodiy fikrlash bilan birga uyg‘unlashtirish lozim. Shundan keyin xorijiy tillarni o‘rganish va o‘zlashtirish yanada samarali bo‘ladi. Mexanik xotirani mukammal rivojlantirish insonning umumiy o‘rganish va o‘zlashtirish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusamatov, H. (2023). Socio-psychological problems of children in migrant families and their solutions. In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 06005). EDP Sciences.
2. Абдусаматов, Х. У. Ў. (2023). Мехнат мигрантлари оилаларидаги хаёт мазмунининг йўналганлик ҳолати. Academic research in educational sciences, 4(ТМА Conference), 663-670.
3. Baxtiyorovna, S.D. (2024). Pedagogik faoliyatda bolalar xotirasini rivojlantirishning pedagogik uslublari. Modern World Education: New Age Problems–New solutions, 1(3), 38-41.
4. Baxtiyarovna, S.D. (2024). Obrazli xotira kichik maktab yoshi o‘quvchilariga xorijiy tillarni o‘rgatish vositasi sifatida. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(2), 37-39.
5. Jalolov J. “Chet til o‘qitish metodikasi”, Toshkent 2012
6. Scott Thornbury – How to Teach Vocabulary: So‘z boyligini samarali o‘rgatish metodlari, vizual va eshitish yondashuvlari haqida.
7. H. Douglas Brown – Principles of Language Learning and Teaching: Til o‘rganish jarayonida kognitiv yondashuvlar va xotira ahamiyatini tahlil qiladi.
8. Lynne Cameron – Teaching Languages to Young Learners: Yosh o‘quvchilarga xorijiy tillarni o‘rgatishda innovatsion metodlarning o‘rni.
9. Jeremy Harmer – The Practice of English Language Teaching: Til o‘qitish amaliyotida obrazli yondashuv va o‘yin elementlarining ahamiyati.
10. Elizabeth L. Jarman – Creating a Space for Learning: Bolalar uchun maxsus ta‘lim muhitini yaratishning vizual va hissiy jihatlari.

